

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA ISMLARNING ERKALASH-KICHRAYTRISH XUSUSIYATLARI

Matqurbonova Hurshidabonu Marks qizi

Master student, faculty of foreign philology,

Urgench state university

Mentor: f.f.n., dots. **R.Y.Xudayberganov**

***Annotatsiya:** Maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi ismlarining lahjaviy va erkalash-kichraytrish shakllari haqida so'z yuritiladi. O'zbek va ingliz tillaridagi ismlarning erkalash va kichraytrish shakllari o'xshash va farqli jihatlari turli misollar orqali tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** Ismlar, erkalash-kichraytirish, erkalash-qisqartirish, erkalash shakli, erkalash ma'nosi*

***Annotation:** The article talks about the dialectal and diminutive forms of Uzbek and English names. The similarities and differences between the Uzbek and English nouns and diminutives are analyzed through various examples.*

***Key words:** Names, affection, diminutives, form of diminutives, meaning of diminutives.*

Ismlar tilning faol funksional leksikasi jumlasiga kiradi. Jamiyatning har qanday qismida, jumladan, oilalarda, jamoalarda va ijtimoiy hayotning boshqa barcha sohalarida inson ismi, familiyasi har kuni, har onda ko'p bor takrorlanib turadi. Kishining ismi tilga olinishi rasmiy va norasmiy bo'lishi mumkin. Bunday qo'llanishlarda norasmiy qo'llanishlar, ya'ni moddiy, ma'naviy va intim holatlar ustun turadi. Kishining ismini aytib unga hurmat izhor qilish, yaqinlikni bildirish uni erkalash suyish mumkin. Ayniqsa, ota-onalarning o'z farzandlarini erkalashi, suyganlarining

intim muomalalarida ismni turli shakllarda o'zgaritib takrorlash muhim o'rin tutadi. Masalan, **Dilbar** ismini Dilash, Dilashim Dilim, Dilishim va boshqa shakllarda talaffuz qilinadi. Ba'zi hollarda mana shunday erkalash-suyish tufayli ism tamoman o'zgacha shaklga kirib ketadi va uning o'nlab erkalash shakllari yuzaga keladi¹.

Ismlarning erkalash-qisqarish shakllari (variantlari) asosan xalq tili shevalarida yuzaga keladi. Bu ikki holatda ko'rinadi: a) mana shunday shakllarning shevaviy fonetika qonuniyatlariga moslashganida; b) qisqargan shakllarning shevalararo farq qilishida: (Jumash – qipchoq shevasida; Jummi o'g'uz lahjasida) Sherna (Shernazar), Sheppi (Sharifa), Rejab (Rajab, Rajabali) kabi.

Tilshunoslikda ismning keltirilgan shakllarini “ismning erkalash-kichraytrish shakli” ham deb yuritiladi. Bunga sabab ismning ushbu shakllarida, bir tomondan, ba'zi ism shaklan qisqarib kichraydi. Chunonchi, **Sarviniso** ismi Sarvi, Sarvim, Sarvish, Sarbishim va boshqalar.

Ismlarning qisqarishi sababli bo'ladigan ikkinchi omil shaklan uzun yoki talaffuzi qiyin ismlarning aytilishini osonlashtirish, talaffuz organlariga yengillik yaratishga intilishdir. Masalan, **Muhammadshukur** ismini Mamash, Mamashukur, Mashukur kabi qisqartirish ushbu holatlarning natijasidir.

O'zbek ismlarining erkalash-kichraytrish va qisqarish shakllariga birinchilardan bo'lib professor F. Abdullayev e'tibor qaratgan. U 1960-yilda “Kishi otlarining qisqarish usullari” nomli maqolasini e'lon qildi.

Ayrim manbalarda erkalash terminiga izoh beradigan turli xil va o'ziga xos izohlarni uchratish bo'lmaganda, na yosh, na keksalar yuzida tabassum bo'lmas edi”²

Webster izohli lug'atida erkalash (affection) so'ziga shunday izoh beriladi: affection – 1) feeling or emotion, tender attachment, fondness; 2) the action of affecting, ya'ni erkalash erkalash – his-tuyg'u yoki his-hayajon, noziklik bilan tegish, erkalash demakdir³.

¹ R.Y. Xudayberganov. O'zbek antroponimiyasi tizimining variantdorligi. –Toshkent,2008. -82-83.

² Qazaqov Sh. Семантико-стилистические особенности эмоционально-оценочной лексики драм Хамзы: Дисс. ...кан. филол. наук. – Ташкент,1990. -160с

³ Merriam W. Merriam Webster's Collegiate Dictionary. Eleventh Edition, - Massachusetts, USA: Incorporated Springfield, 2003. –PP.21-975

Rogert's Thesaurus lug'atida erkalash termini endearment, loving words, affectionate speeches, pretty names, pet name kabi sinonimik nomlarga ega¹.

O'zbek tilining izohli lug'atida erkalash bu mehr berib suyish ekanligi, balki, paralingvistik vositalar, ya'ni tana harakati orqali ham ifoda etilishi mumkinligi aytilgan.

E.Begmatov o'zbek antraponimiyasini monografik tadqiq qilar ekan, ismlarning qisqarish xususiyatlariga ham to'xtalgan. U quyidagilarni yozadi: "O'zbek antraponimiyasi shuni ko'ratadiki, ismlarning qisqarishi ikki obyektiv ehtiyoj tufayli yuzaga keladi: 1) kishini erkalab munoabatda bo'lish va buni uning ismi orqali ifodalash; 2) talaffuzi qiyin (ayniqsa o'zlashma qo'shma ismlar)ning talaffuzni osonlashtirish maqsadida. Masalan: Sarviniso, Tojiniso, Muhammad ismlarini **Sarvi, Toji, Mamad** tarzida qisqartirladi"².

E.Begmatov o'zbek ismlarining qisqargan va erkalash-kichraytrish shakllariga ismlar imlosini tadqiq qilish va me'yorlash imkoniyatlarini o'rganish munosabati bilan to'xtalgan, ularni imloviy normalar nuqtai nazaridan baholagan³.

So'zlarning talaffuzini qisqartirish aslida, mohiyatan tilning nutqiy iqtisod qonuni bilan ham bog'liq. Bunga ko'ra, so'z shaklining qisqartirilishi va qisqa aytilishi, bu tufayli talaffuzi osonlashishi, nutqiy jarayonda ovozni va talaffuz uchun ketadigan vaqtni tejashga intilish bilan ham bog'liqdir.

Bizning fikrimizga ko'ra esa, erkalash – har bir tilning o'ziga xos vositalari, shakl-usullaridan foydalanib odamlarga, jonivorlarga, tabiatga, narsa-hodisalarga nisbatan mehribonlik, muhabbat, mayinlik, nafis mehr bilan suyish va sevish kabi munosabatlarni ifodalaydi.

Ko'p hollarda erkalash shakli kichraytrish bilan birga o'rganilib kelinadi. Ba'zi olimlar(A.K.Po'latov, J.Bo'ranov, O.M.Mo'minov, N.Asqarova, A.Rafiyev va boshq.) o'z ilmiy ishlarida kichraytirish va erkalashni bir-biriga bog'lab o'rganadilar.

¹ Rogert's Thesaurus of English Words and Phrases (105th Anniversary Edition).- London: The Penguin Press, 2002,888-889p.

² Begmatov E. Антропонимика узбекского языка: Автореф.дисс. ...канд.филол.наук. -Тошкент, 1965. -21 с

³ O'sha avtoreferat. –B.22

Ayrimlari esa (M.I.Rasulova, Sh.Qazaqov, O.Safarov, R.R.Xadyatullayev va boshq.) ushbu terminlarni bir-biridan ajratib tadbqiq etadilar.

Tilshunoslik terminlari izohli lug‘atida bu atamalar shakl sifatida ko‘rilar ekan, shu o‘rinda erkalash shakli va erkalash ma‘nosi atamalari ham o‘ziga xos izoh talab qiladi. Erkalash shakli biror-bir so‘zga erkalash shakli qo‘shimchalarini (-xon, -jon, -gina va boshq.) qo‘shish orqali hosil bo‘ladi, lekin matnda mazkur so‘z erkalash ma‘nosini ifoda etmasligi mumkin. Erkalash ma‘nosi esa aynan bir so‘zga erkalash qo‘shimchasini qo‘shmagan holda ham kontekstda erkalsh shakli hosil qiladi. Masalan, asal so‘zi ko‘chma ma‘noda erkalashni ifoda etadi. Madina ismiga –xon suffiksi qo‘shilsa (Madinaxon) erkalash shakli hosil bo‘ladi. Yoki aksincha, ayni bir so‘z erkalash shakli suffiklarini olib turib ham erkalash ma‘nosini ifoda etmasligi, mazkur so‘z kinoya, hurmat, kichraytirish ma‘nolariga ega bo‘lishi mumkin.

Ingliz tilida keng tarqalgan kichraytirish yo‘li bu haqiqiy ismning birinchi bo‘g‘ini yoki birinchi tovushini qisqartirish shaklidir. Masalan, **Alexander** ismining Alex, **Barbara** ismining Barb, **Deborah** ismining Deb, **Michael** ismining Mike shakllari shunday hollarga misollardir. Boshqa bir kichraytirish shakllarida qisqarish nom boshida emas o‘rtasida yoki ohirida sodir bo‘ladi. Masalan, **Elizabeth** – Beth, **Alfred** – Fred, **Margareta** – Greta, **Elisabeth** – Lisa shakllari.

O‘zbek tilidagi ismlarning qisqarish miqdori shaxs nomini qisqartirib aytuvchining xohishi va topqirligiga, shuningdek ismni qisqartirish imkoniyati va chegarasiga ko‘ra kam yoki ko‘p bo‘lishi mumkin. O‘zbek antroponimiyasida qisqarish hodisasida ma‘lum qismi talaffuz jarayonida tushiriladi. Qisqarish tufayli tushadigan qism, bo‘g‘in yoki bo‘g‘inlar ismning barcha o‘rinlarida yuz berishi mumkin. Qisqarish ismning bosh qismida yuz beradi: **Abdulaziz** – Allaz, **Jahongir** – Jongir, **Muhammadazim** – Madazim, **Muhammadaziz** – Madaziz kabi. Qisqarish ismning o‘rta qismida yuz beradi: **Ro‘zabika** – Ro‘zika, **Boboxon** – Boxon, **Xudoybergan** – Xudargan va boshq. Qisqarish ismning so‘ngi bo‘g‘inida yuz beradi: **Bog‘ibek** – Bog‘i, **Samandar** – Saman, **Ko‘paysin** – Ko‘pay, **Zubaydullo** – Zubay.

Erkalash-kichraytirish usulida qisqargan ismlarga xos muhim xususiyatlardan biri qisqargan ism shaklining ma'lum qo'shimchalarni qabul qilish orqali hosil qilinishidir. Bu haqda bir qancha olimlar, jumladan, F.Abdullayev, B.O'rinboyev va E.Begmatovlar o'z ishlarida qayd qilishgan. Bizning o'zbek tilida, jumladan, Xorazm aholisi antraponimiyasini kuzatish orqali ismlarning erkalash-qisqartirish shakllari quyidagi qo'shimchalarda o'z ifodasini topadi:

-y (-ay) qo'shimchasi: Matay (Matqurbon), Solay (Salohiddin), Botay (Botirali).

-sh (-ash) qo'shimchasi: Dilash (Dilbar), Mahash (Marhamat).

-sh,(-ish, -ash) qo'shimchasi: Sarvish (Sarviniso), Dilish (Dildora), Begish (Begmat).

-m qo'shimchasi: Gulim (Gulniso), Begim (Bekmuhammad), Nurim (Nurmuhammad).

Ingliz tili antraponimiyasida ham erkalash-kichraytirish qo'shimchalar orqali hosil qilinadi.

-y/-ie qo'shimchasi: Abby, Debbie, Chalie, Johnny, Sammy.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan shunday xulosaga kela olamizki, antraponimik tizimda variantdorlikni tug'diruvchi omillardan biri erkalash-kichraytirish omilidir. Bunda ismning to'liq shakli ushbu omil tufayli turli shakllarga kiradi va antroponimik variantlarni tug'diradi. Antroponimik variantlarni yuzaga keltiruvchi omillardan yana biri ismlarning turli lahja va shevalarda mahalliy shakllarga ega bo'lishidir. Ismning lahjaviy shakli nomning adabiy shakliga nisbatan yoki bitta ismning shevalararo shakllari o'zaro antraponimik variantni tugdiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1.R.Y. Xudayberganov. O'zbek antroponimiyasi tizimining variantdorligi. – Toshkent,2008. -82-83.

2.Qazaqov Sh. Семантико-стилистические особенности эмоционально-оценочной лексики драм Хамзы: Дисс. ...кан. филол. наук. – Ташкент,1990. -160с

3. Merriam W. Merriam Webster's Collegiate Dictionary. Eleventh Edition, - Massachusetts, USA: Incorporated Springfield, 2003. –PP.21-975
4. Roget's Thesaurus of English Words and Phrases (105th Anniversary Edition). - London: The Penguin Press, 2002, 888-889p.
5. Begmatov E. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Тошкент, 1965. - 21 с
6. Begmatov E. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Тошкент, 1965. –В.22
7. <https://www.behindthename.com/glossary/view/diminutive>